IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

O’ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY O’SISHDAGI ROLI

Yusupova Dilnavo
Farg’ona davlat texnika universiteti
“Iqtisodiyot” yo’nalishi 3-kurs talabasi
e-mail: dilnavoxon.yusupova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23152221

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'sir kanallari 2015–2025-yillardagi rasmiy statistika, Jahon banki va XVF hisobotlari hamda me'yoriy hujjatlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlarga tayangan tavsifiy-tahliliy dizaynga ega bo'lib, bandlik, qo'shilgan qiymat, kreditlash va davlat qo'llab-quvvatlash vositalariga oid ko'rsatkichlarni solishtiradi. Muhokamada moliyalashtirish, bandlik, ishlab chiqarish quvvati va bozorga kirish kanallari orqali o'sishga xizmat qilishi, ammo kreditning o'zi yuqori unumdorlikni kafolatlamasligi asoslanadi. Imtiyozli kreditlashning yuqori ulushi va uning fiskal xarajatlarini hisobga olib, kredit kafolati, ulgurji kreditlash va kredit axborot infratuzilmasiga tayangan bozorga mos vositalarga bosqichma-bosqich o'tish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, moliyalashtirish, kreditga kirish imkoniyati, iqtisodiy o'sish, bandlike, mehnat unumdorligi, kredit kafolati, O'zbekiston.

Kirish.

Hozirgi kunda O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biriga aylangan. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2025-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1,21 mln tani tashkil etgan. Ularning tarkibida 479 ming kichik korxona va mikrofirma, 281,9 ming yakka tartibdagi tadbirkor va 422,3 ming dehqon xo'jaligi bor. Rasmiy statistikaga ko'ra, 2025-yilda kichik biznes yalpi qo'shilgan qiymatning 52,2 foizini yaratgan, uning bandlikdagi ulushi esa 74,9 foizga yetgan. Biroq bu ulushlar sektorning ko'lamini ko'rsatadi, moliyalashtirishning mustaqil sababiy ta'sirini emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Moliya va o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha adabiyotlar ancha boy. Levine sharhiga ko'ra, dalillarning katta qismi moliyaviy vositachilar va bozorlar o'sish uchun muhimligini ko'rsatadi, teskari ababiyat esa bu bog'liqlikni yolg'iz o'zi tushuntirmaydi; mexanizmlardan biri sifatida rivojlangan moliya tizimi firmalarning tashqi moliyalashtirishdagi cheklovlarini yumshatishi ko'rsatiladi. Beck va Demirgüç-Kunt (2006) moliyaga kirish imkoniyatini kichik va o'rta korxonalar o'sishining asosiy cheklovi sifatida tahlil qilgan. Shu bilan birga, Beck, Demirgüç-Kunt va Levine (2005) 45 davlat namunasida SME sektorining ahamiyati bilan aholi jon boshiga YaIM o'sishi o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik topgan, biroq SME'larning o'sishga sababiy ta'siri va kambag'allikni kamaytirishdagi roli uchun ishonchli dalil topa olmagan. Yaqinda Keffala

rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda qarz va kapital shaklidagi SME moliyalashtirishi o'sishga ijobiy hissa qo'shishini umumlashtirilgan momentlar usuli bilan ko'rsatgan.

O'zbekiston misolida masala o'ziga xos. Birinchidan, kichik biznesning bandlikdagi ulushi yuqoriligicha qolayotgan bir paytda, uning YaIMdagi ulushi 2017-yildagi 67,4 foiz cho'qqisidan 52,2 foizgacha tushgan. Ikkinchidan, moliya tizimida davlat ulushi yuqori. Davlat banklari moliya tizimi aktivlarining 62 foizini nazorat qiladi va bank kreditlarining taxminan 30 foizi yo'naltirilgan yoki imtiyozli kreditlardan iborat. Uchinchidan, mikro, kichik va o’rta korxona(MKO'K)lar kreditga ehtiyoji va uning qondirilishi o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Shu sababli moliyalashtirish hajmi emas, uning tuzilmasi, narxi va yo'naltirilishi masalasi birinchi o'ringa chiqadi.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish iqtisodiy o'sishga qaysi kanallar orqali xizmat qilishini va bu kanallar qaysi to'siqlar sababli to'liq ishlamayotganini baholashdir. Tadqiqot savollari:

1. Kichik biznesning bandlik va qo'shilgan qiymatdagi roli 2015–2025-yillarda qanday o'zgargan?
2. Kichik biznes moliyalashtirishining hajmi, narxi va tuzilmasi ehtiyojga qanchalik mos keladi?
3. Davlat va xalqaro moliya institutlarining qo'llab-quvvatlash vositalari qanday imkoniyat va cheklovlarni yaratadi?

Tahlil quyidagi takliflarga tayanadi: bandlik ulushi yuqori, qiymat ulushi pasayib borayotgani kichik biznesda unumdorlik muammosiga ishora qiladi; moliyaga kirish tafovuti saqlanib qolmoqda va u narx hamda ma'lumot asimmetriyasi bilan bog'liq; moliyalashtirishning samarasi vositaning tuzilishiga bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot tavsifiy-tahliliy dizaynda, ikkilamchi ma'lumotlar asosida o'tkazildi. Birlamchi ma'lumot (so'rovnoma, intervyu) yig'ilmadi, shuning uchun tadqiqot sababiy ta'sirni baholamaydi; u bog'liqliklarni aniqlaydi va ularni nazariy kanallar bilan izohlaydi. Tahlil davri 2015–2025-yillarni qamrab oladi; moliyalashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha eng so'nggi mavjud ma'lumotlar (2023–2025) ishlatildi. Uch guruh manba triangulyatsiya uchun tanlandi**.** Bular, Rasmiy statistika va uning ilmiy nashrlardagi qayta ishlangan ko'rinishi, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari (UzDaily, 2025; INVEXI, 2026), 2015–2025-yillardagi ulushlar dinamikasi va hududiy tahlil (Agro-biznes jurnali, 2025; Zenodo, 2026a). Xalqaro tashkilotlar hujjatlari, jumladan, XVF–Jahon banki Moliya sektori bahosi (World Bank, 2025a), Jahon banki loyiha hujjati (World Bank, 2025b), OECD (2023) hisoboti, IFC press-relizlari. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ya’ni Prezidentning 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son va 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son qarorlari. Nazariy asos sifatida Levine (2005), Beck va Demirgüç-Kunt (2006), Beck va boshq. (2005) hamda Keffala (2026) ishlari ishlatildi.

Tahlil va natijalar.

Birinchi, ulushlar dinamikasi 2015, 2017 va 2025-yillar bo'yicha taqqoslandi. Ikkinchi, bandlik va qiymat ulushlari farqi sifatida "bandlik–qiymat tafovuti" (BQT, foiz bandi) hisoblandi: BQT = bandlik ulushi − YaIM ulushi. Uchinchi, kreditga talab va taklif o'rtasidagi farq

(moliyalashtirish tafovuti) manbalardagi baholar asosida solishtirildi. To'rtinchi, davlat va xalqaro vositalar kontent-tahlil yordamida maqsadi, mexanizmi va baholangan cheklovlari bo'yicha guruhlandi.

1-jadval kichik biznes ulushlarining o'n yillik dinamikasini ko'rsatadi.

Ko’rsatkich	2015	2017	2025
YaIMdagi ulushi, %	64,6	67,4	52,2
Bandlikdagi ulushi, %	77,9	n/a	74,9
BQT, foiz bandi	13,3	n/a	22,7

Manba: Agro-biznes jurnali (2025); Zenodo (2026a) ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Bandlik ulushi o'n yilda atigi 3,1 foiz bandiga kamaygan bo'lsa, YaIM ulushi 12,4 foiz bandiga pasaygan. Natijada BQT 13,3 dan 22,7 foiz bandigacha kengaygan, ya'ni 2025-yilda sektor bandlikning to'rtdan uch qismini ta'minlab, YaIMning yarmidan sal ko'prog'ini yaratgan. Bandlik ulushining qiymat ulushiga nisbati 2015-yildagi 1,21 dan 2025-yilda 1,43 gacha oshgan.

Kichik biznesning ulushi tarmoqlar bo'yicha keskin farq qiladi. 2025-yilda uning qo'shilgan qiymatdagi ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 93,1 foiz, qurilishda 75,6 foiz, xizmatlarda 47,2 foiz va sanoatda 28,5 foizni tashkil etgan. Hududiy farq ham katta: yalpi hududiy mahsulotdagi ulush Navoiyda 21,1 foizdan Surxondaryoda 76,4 foizgacha o'zgaradi, bandlikdagi ulush esa Andijon viloyatida 81,9 foiz, Toshkent shahrida 49,8 foiz bo'lib, farq 32,1 foiz bandini tashkil etadi. Tashqi savdoda 2025-yil yanvar–sentabrda kichik biznes tovar eksportining taxminan 32 foizini, importning esa taxminan 54 foizini bergan.

2-jadvalda moliyalashtirishga oid asosiy ko'rsatkichlar jamlangan.

Ko'rsatkich	Qiymat
MKO'K bank kreditlari (2023 oxiri)	6,2 mlrd AQSh dollari (shundan mikromoliya tashkilotlari 21 mln)
MKO'K kreditga talabi	taxminan 13 mlrd dollar; tafovut 6–7 mlrd dollar
SME'ning bank kreditlaridagi ulushi (2024)	10,6% (davlat banklari 11,7%; xususiy 8,6%; xorijiy 7,2%)
Kredit portfelidagi boshqa segmentlar	yirik korxonalar 39,3%; aholi 33,3%
Kreditga kirish (korxona so'rovi, 2024)	kichik korxonalarning 10%i, o'rtalarning 16%i
Bank hisobvarag'i yo'q SME	uchdan bir qismdan ortig'i
Yo'naltirilgan va imtiyozli kreditlar	bank kreditlarining taxminan 30%i
Foiz stavkalari	SME uchun bozor stavkasi ~30%; imtiyozli ~17,5%; bank bo'lmagan kredit tashkilotlari 50–100%
Bank bo'lmagan sektor	moliya aktivlarining 3,5%i; MFO'larning MKO'K bo'yicha qoldig'i 21 mln dollar (2025 yanvar)
Norasmiy bandlik	umumiy bandlikning taxminan 40%i

Xususan, kreditga talab (13 mlrd) va mavjud MKO'K krediti (6,2 mlrd) o'rtasidagi farq taxminan 6,8 mlrd dollarni tashkil etadi va manbalarning 6–7 mlrd dollarlik bahosiga mos keladi. Kredit tuzilmasida SME'lar yirik korxonalar va aholidan keyin turadi. Moliyalashtirish narxi ham yuqori: bank kreditlari bo'yicha foiz spredi 2024-yilning dastlabki to'qqiz oyida taxminan 5 foizga yetgan, bank bo'lmagan kredit tashkilotlarining stavkalari esa 50–100 foizni tashkil etgan. Jahon banki hujjatida axborot asimmetriyasi, yuqori garov talablari, garov sifatining pastligi,

kapital bozorlarining rivojlanmaganligi va moliyaviy savodxonlikning pastligi (2019-yilgi baholashda aholining 21 foizigina asosiy moliyaviy tushunchalarni bilgan) asosiy to'siqlar sifatida qayd etiladi.

XVF–Jahon banki bahosiga ko'ra, 2017–2023-yillarda davlat banklarini rekapitalizatsiya qilish yiliga YaIMning 0,4–2,0 foizini tashkil etgan va jami 5,8 mlrd dollarga teng bo'lgan. Yo'naltirilgan va imtiyozli kreditlar kredit xavfini oshiradi va baholash uchun ochiq ma'lumotlar yetarli emas. MKO'K krediti bo'yicha imtiyozli dasturlar ulushi 10–30 foiz oralig'ida baholanadi.

Tadqiqot uch asosiy natijani ko'rsatdi. Birinchi, kichik biznes bandlik bo'yicha tayanch sektor bo'lib qolmoqda, lekin uning YaIM ulushi pasaygan va BQT kengaygan. Ikkinchi, moliyalashtirish hajmi o'sgan bo'lsa-da, ehtiyojning qariyb yarmi qondirilmagan, SME'ning kredit portfelidagi ulushi esa uning iqtisodiyotdagi ulushidan ancha past. Uchinchi, qo'llab-quvvatlash vositalari ichida qisman kafolat kabi bozorga mos mexanizmlar ustuvor deb baholanadi, imtiyozli kreditlash esa fiskal va kredit xavfi bilan bog'liq. Moliyalashtirish o'sishga quyidagi kanallar orqali xizmat qiladi.

1. Bandlik. Kichik biznes bandlikning asosiy qismini ta'minlaydi, ammo bu bandlikning sifati masalasi ochiq: umumiy bandlikning taxminan 40 foizi norasmiy, rasmiy ish haqi oluvchilar esa 5,5–6 mln kishi atrofida. Shu sababli kredit yangi ish o'rinlarini yaratishi mumkin, biroq ularning rasmiylashuvi va daromadi alohida siyosatni talab qiladi.

2. Ishlab chiqarish quvvati. Kichik biznesning qo'shilgan qiymatdagi ulushi qishloq xo'jaligi (93,1 foiz) va qurilishda (75,6 foiz) yuqori, sanoatda (28,5 foiz) past. Kichik biznes subyektlarining taxminan 35 foizi dehqon xo'jaliklaridir (422,3 mingdan 1,21 mln, UzDaily, 2025 ma'lumotlari asosida). Quvvatni kengaytirish uzoq muddatli va uskuna xaridiga mo'ljallangan moliyani talab qiladi; bank bo'lmagan sektor kichik, lizing kompaniyalari esa tartibga solinmaydi. Bu bo'shliq lizing va uzoq muddatli kreditlarning ahamiyatini oshiradi

3. Bozorga kirish. Yangi tadbirkorlar uchun asosiy to'siq kredit tarixi va garov yo'qligi. Jahon banki hujjati axborot asimmetriyasi va garov sifati muammosini asosiy bozor nomukammalligi sifatida ko'rsatadi, qisman kafolat va psixometrik skoring kabi vositalarni yechim sifatida taklif qiladi. Eng muhimi, garovsiz kredit va kafolat aynan ta'minoti yetarli bo'lmagan tadbirkorlarga yo'l ochishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish iqtisodiy o'sishga bandlikni kengaytirish, ishlab chiqarish quvvatini oshirish va yangi biznesning bozorga kirishini yengillashtirish orqali xizmat qiladi. Sektor 2025-yilda YaIMning 52,2 foizini va bandlikning 74,9 foizini ta'minlagan, biroq bandlik va qiymat tafovuti kengaygan, kreditga talab esa qondirilmagan. Moliyalashtirishning samarasi uning hajmiga emas, narxiga, yo'naltirilishiga va vosita turiga bog'liq. Qisman kredit kafolati, ulgurji kreditlash, kredit axborot infratuzilmasi va maslahat xizmatlari birgalikda qo'llanganda, kredit unumdorlik va barqaror o'sishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu xulosalar tavsifiy xarakterga ega va sababiy emas, shu sababli ularni birlamchi ma'lumotlar bilan tekshirish kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish siyosatini faqat kredit hajmini oshirishga yo‘naltirish yetarli emas. Moliyalashtirishning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini kuchaytirish uchun kreditning mavjudligi bilan bir qatorda uning narxi,

muddati, ta’minoti va tadbirkorning moliyaviy imkoniyatlariga mosligi ham hisobga olinishi lozim. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, kichik biznes uchun kredit kafolati mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Kichik korxonalar uchun asosiy to‘siqlardan biri yetarli garovning mavjud emasligidir. Shu sababli kreditning to‘liq summasini davlat tomonidan subsidiyalash o‘rniga, kredit xavfining ma’lum qismini kafolatlash mexanizmini kengaytirish samaraliroq bo‘lishi mumkin. Bunda davlat tadbirkorning o‘rniga kreditni moliyalashtirmaydi, balki bank uchun riskning bir qismini kamaytiradi. Natijada garovi yetarli bo‘lmagan, biroq biznes modeli va pul oqimi barqaror bo‘lgan korxonalarning kredit olish imkoniyati kengayadi.

Ikkinchidan, imtiyozli kreditlashdan bosqichma-bosqich bozor mexanizmlariga o‘tish lozim. Imtiyozli kreditlar qisqa muddatda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashi mumkin, biroq ularning yuqori ulushi kredit resurslarini ma’muriy taqsimlash, fiskal xarajatlar va kredit riskining oshishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli imtiyozlarni barcha tadbirkorlarga bir xil taqdim etish o‘rniga, ularni yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish, texnologik yangilanish va energiya samaradorligini yaxshilash kabi aniq natijalar bilan bog‘lash taklif etiladi.

Uchinchidan, kichik biznes uchun kredit axborot infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Kredit tarixining yetarli emasligi va axborot asimmetriyasi banklar uchun kichik biznesni baholashni qiyinlashtiradi. Shu sababli korxonalarning bank hisobvaraqlari, soliq to‘lovlari, elektron savdo aylanmasi va boshqa qonuniy moliyaviy faoliyatini hisobga oluvchi zamonaviy kredit skoring tizimlarini rivojlantirish lozim. Bunday tizimlar tadbirkorning faqat garoviga emas, balki uning real pul oqimi va to‘lov qobiliyatiga ham baho berish imkonini beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish siyosatining asosiy maqsadi kreditlar soni yoki hajmini maksimal darajada oshirish emas, balki moliyaviy resurslarni unumdor, barqaror va iqtisodiy qo‘shilgan qiymat yaratadigan bizneslarga samarali yetkazish bo‘lishi lozim. Buning uchun kredit kafolatlari, kredit axborot tizimlari, uzoq muddatli moliyalashtirish, lizing va biznes maslahatlarini rivojlantirish hamda imtiyozli kredit dasturlarini natijadorlik asosida baholash bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida qo‘llanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agro-biznes jurnali. (2025). Disparity between employment and GDP shares of small business in Uzbekistan: national and regional statistical analysis . https://agrobiznesjournal.uz/index.php/ast/article/view/178
2. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2005). SMEs, growth, and poverty: Cross-country evidence. Journal of Economic Growth, 10(3), 199–229. https://doi.org/10.1007/s10887-005-3533-5
3. Frontiers in Political Science. (2026). Unlocking the export potential of small entrepreneurship in Uzbekistan through efficient market infrastructure. https://doi.org/10.3389/fpos.2026.1916045
4. IFC. (2025, 25-sentabr). IFC and DAVR-BANK partner to boost financing for small businesses and women entrepreneurs in Uzbekistan https://www.ifc.org/en/pressroom
5. INVEXI. (2026). Uzbekistan's GDP grows 7.7%: Highest growth rate in five years. https://invexi.org/press/uzbekistan-s-gdp-grows-7-7-highest-growth-rate-in-five-years/

6. Keffala. (2026). Comparative analysis of SME financing impact on economic growth: Evidence from developed and developing economies. Review of Development Economics. https://doi.org/10.1111/rode.70074
7. lex.uz. (2023). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarori: Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. https://lex.uz/acts/6609110
8. Norma.uz. (2024). "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi takomillashtiriladi [PQ-312-son, 07.09.2024]. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/kichik_biznesni_uzluksiz_qullab-quvvatlash_kompleks_dasturi_takomillashtiriladi
9. OECD. (2023). Insights on the business climate in Uzbekistan. OECD Publishing.https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/05/insights-on-the-business-climate-in-uzbekistan_9ac46b98/317ce52e-en.pdf
10. UzDaily. (2025). Small business in Uzbekistan accounts for over half of GDP in 2025. https://www.uzdaily.uz/en/small-business-in-uzbekistan-accounts-for-over-half-of-gdp-in-2025/
11. World Bank. (2025b). Access to finance for jobs and growth MPA Phase 1 – Uzbekistan (P511700): Project information document (Report No. PIDIA01502). https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111125164834893/pdf/P511700-4c30f714-7fff-495b-8330-6bf575847bf5.pdf
12. zamon.uz. (2023, 17-noyabr). Malakali tadbirkorlarga yanada ko'proq imtiyozlar beriladi. https://zamon.uz/uz-cyrl/2023/11/17/malakali-tadbirkorlarga-yanada-koproq-imtiyozlar-beriladi-ajratiladi-24715
13. Zenodo. (2026a). Small business development and competitiveness in Uzbekistan: Descriptive trends, regional evidence and international benchmarks https://zenodo.org/records/21514740